



Mamlakatimizda dastlabki avtomobillarning kirib kelishi

Murodjonov Mirhojiddin Nosirali o'g'li

Namangan viloyati Namangan davlat

Universiteti magistratura bo'limi

Tarix yo'nalishi 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada dunyodagi ilk avtomobil yaratilish tarixi hamda Namangan viloyatida dastlabki avtomobilning kirib kelishi, uning aholi turmush tarzi yaxshilanishidagi hissasi haqida to'xtalib o'tilgan.

Kalit so'zlar: ilk avtomobil yaratilish, tarix, Namangan, dastlabki avtomobillar...

Iqtisodiyotning erkinlashtirilishi sharoitlarida investitsion jarayonlar milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirishga, hududlarda va korxonalarda ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga qaratilishi lozim. Ularning amalga oshirilishi yalpi ichki mahsulotning yuqori sur'atlar bilan o'sishini, aholi bandligini va farovonligini oshirishni ta'minlaydi. Shuning uchun 2022-2026-yillarda O'zbekiston Respublikasi Taraqqiyoti strategiyasining ustuvor yo'nalishlari bo'yicha amalga oshirilayotgan tadbirlar uzoq vaqtga mo'ljallangan fundamental maqsadlarni o'rta qo'yish bilan bir qatorda, bu maqsadlarga erishish vositalari, yo'llarini belgilashni ham o'z ichiga olmoqda. Bular orasida ishlab chiqarishni zamonaviy texnologiyalar negiziga ko'chirish va samaradorligini to'xtovsiz oshirib borish eng ahamiyatlidir. Mustaqillikka erishilgandan so'ng mamlakatimizda avtomobillarning ishlab chiqarilishi hamda viloyatlarimizga kirib borishi ham yurtimizda shart-sharoitlarning rivojlanganligini yaqqol namoyondasidir.

Avtomobil ([lotincha](#): *mobilis* – harakatchan) – [dvigatel](#) yordamida harakatga keltiriladigan relssiz [transport](#) vositasi. Yo'lovchilar va yuk tashishga mo'ljallangan. 1751-1752-yillarda Nijniy Novgorod [gubernyasi](#) (Rossiya) dehqoni Leontiy Shamshurenkov ikki kishi oyog'i bilan yurgiziladigan „o'ziyurar aravacha“ qurdi. [I. P. Kulibin](#) bir qancha muhim [mexanizmlarni](#), uzatmalar qutisini taklif qildi. Bug' [mashinasi](#) paydo bo'lgandan keyin ixtirochilar undan [mexanik](#) aravada foydalanishga harakat qildilar. 1769-1770 yillarda fransuz harbiy muhandisi N. J. Kyuno [artilleriya](#) to'plari uchun 3 g'ildirakli bug' aravasi qurdi. Angliyada 1802-yilda Trevitnik bug' mashinasi o'rnatilgan A. qurdi. 1830-yilda rus ustasi K. Yankevich bug' avtomobillariga temirdan yasalgan 100 dan ortiq gaz



quvurli bug' qozoni o'rnatishni taklif etdi. [Akkumulyatordan](#) tok olib ishlay-digan [elektr dvigatelli](#) avtomobillar bilan ham ko'pgina tajribalar o'tkazildi. Ichki yonuv dvigateli ixtiro qilingandan keyin avtomobillar muntazam rivojlantirila boshlandi. Avtomobillarga [benzin](#) va [kerosin](#) bilan ishlaydigan dvigatellar o'rnatish borasida turli mamlakatlarning ko'pgina ixtirochilari ish olib bordilar. 1885-1886-yillarda [Germaniyada](#) Daymler benzin bilan ishlaydigan dvigatelni [mototsiklga](#), Bens esa uch g'ildirakli avtomobillarga o'rnatdi. Temir g'ildiraklar o'rniga yaxlit [rezina](#) shinalar, 1890-yildan esa pnevmatik rezina shinalar ishlatila boshladi. Avtomobilsozlik dastlab [Fransiyada](#), so'ngra AQSH, Germaniya va [Yaponiyada](#) rivojlandi. O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng avtomobil sanoati rivojlangan mamlakatlar qatoriga qo'shildi. Asaka shahri (Andijon viloyati)da Janubiy Koreyaning DAEWOO [korporatsiyasi](#) bilan hamkorlikda barpo etilgan „O'zDAEWOO Avto“ qo'shma korxonasida 1996-yildan boshlab „Neksiya“, „Damas“ va „Tiko“ yengil avtomobillari ishlab chiqara boshlandi.

Dunyoda birinchi mashinalar 1768-yilda paydo bo'la boshladi. Bu bug' bilan ishlaydigan transport bo'lib, ot kuchidan foydalanmasdan bir kishini tashish mumkin edi. 1806-yilda ixtirochilar ichki yonish dvigatellariga murojaat qilishdi, ammo ular g'oyalarni faqat 1885-yilda amalga oshirishga muvaffaq bo'lishdi.

Mashina ixtirochisi — U kim?

Leonti Shamshurenkov mashinaga o'xshash modelni yaratdi. Bu inson oddiy dehqon bo'lib yashagan. 1752-yil noyabr oyining boshida uning ixtirosi Rossiya



poytaxtida qiziqish uyg'otdi, o'sha paytda poytaxt Sankt-Peterburg edi. Dizayn to'rt g'ildirakli, soatiga 15 km tezlashadigan va ikki kishini sig'dira oladigan „vagon“ edi.

Tarixga nazar soladigan bo'lsak



Sovet Turkiston hukumatida **1918-yilda avtomobillarning soni**

35 ta bo'lgan va ularning 13

tasi kapital ta'mirga muhtoj bo'lgan edi (R-17-fond, 1-ro'yxat, 175-yig'majild, 160-

bet). 1922-yilga kelib avtomobillar soni 55 ta bo'lib, har birining dvigatel raqami, ot kuchi va o'sha vaqtdagi

holati ko'rsatilgan. Avtomobillarning 2 tasi kapital ta'mirlashda, 1 tasi o'rta darajadagi ta'mirlashda bo'lsa, qolgan barchasi ishchi holatda bo'lgan. Demak, Sovet Turkistoni hukumati 4 yil davomida 20 dan ortiq avtomobil sotib olgan, bunda eski mashinalarni chiqarib tashlash hisobiga aslida bundan ham ko'proq avtomobil sotib olingan, deb taxmin qilish mumkin.

Turkiston ASSR Markaziy Ijroiya Qo'mitasi (MIQ) avtoparkida 6 ta avtomobil bo'lib, eng qimmat Delaunay-Belleville (Fransiya) kompaniyasi tomonidan 1913 yildan boshlab ishlab chiqarilgan, 40/50 HP nomi bilan tanilgan hashamatli Type O6 modeli edi. Avtomobil odatda 40–50 ot kuchiga ega motor bilan chiqarilgan, MIQ avtoparkidagi modelning quvvati esa 60 ot kuchiga teng bo'lgan. Bu avtomobil, katta ehtimol bilan, MIQ raisi (o'sha vaqtda Abdulla Rahimboyev)ga xizmat qilgan. XX asr boshida dunyoda eng obro'li avtomobillardan biri hisoblangan, Delaunay-Belleville'dan avtomobillari hukumat rahbarlari, qirollar (xususan, Rossiya imperatori Nikolay II), generallar foydalangan. Bundan tashqari, MIQ avtoparkda yana bir fransuz avtogiganti — Peugeot'ning 1914 yilda ishlab chiqarila boshlangan, quvvati 60 ot kuchiga ega bo'lgan elit avtomobili, Napier (Buyuk Britaniya) kompaniyasining 1902 yildan boshlab ishlab chiqarilgan 30HP rusumli (2 ta), Chandler (AQSh) kompaniyasining 1916 yilda ishlab chiqarila boshlangan 22 ot kuchiga ega Model 6 (2 ta) avtomashinalari ham bo'lgan. Hozirgi Vazirlar Mahkamasining muqobili hisoblangan Turkiston ASSR Xalq Komissarlari Soveti (XKS)ning raisi Qayg'usiz Otaboyevga o'z davri uchun katta — 65 ot kuchiga ega bo'lgan Locomobile 40 Runabout avtomobili xizmat ko'rsatgan (mashina AQShning Durant Motors





kompaniyasi tomonidan 1908 yildan boshlab ishlab chiqarilgan). U o'sha davrda jahon bozorida 4750 dollardan sotilgan. Biz ko'rib chiqayotgan ro'yxatda XKS ixtiyorida yana boshqa avtomobillar bor-yo'qligi ko'rsatilmagan. Ehtimol, bu vazirlik va tashkilotlarning avtoparklari haqida alohida axborot berilgani bilan bog'liqdir.



Turkiston hukumati avtoparkidagi eng ommabop avtomobil Ford avtokompaniyasining o'z davrida Tin Lizzie («Tunuka Lizzi») nomi bilan mashhur «Model T» avtomobili bo'lgan. Keyingi o'rinlarni Renault va Opel (4 tadan), Talbot, Peugeot va Napier (3 tadan) kompaniyalari tomonidan ishlab chiqarilgan avtomobil

modellari egallagan.

Tashqi savdo xalq komissarligi ixtiyoridagi yagona avtomobil Italiyaning Lancia kompaniyasi tomonidan 1919 yilgacha ishlab chiqarilgan Theta-35 HP modeli edi. Lancia Yevropada birinchi bo'lib aynan Theta modellarini elektr chiroqlar va elektr yurgizish standart komplektatsiyasi bilan seriyali ishlab chiqarishni yo'lga qo'ygan edi. Ichki ishlar xalq komissari Abulay Sergaziyevning xizmat mashinasi hukumat raisi Qayg'usiz Otaboyevniki bilan bir xil — Locomobile 40 Runabout edi. Avtomobil hashamatli va tezkorligi sabab qimmat turdagi ulovlardan hisoblangan. Sog'liqni saqlash xalq komissarligi uchun ajratilgan avtomobil biroz kamtarroq — Phenomenon avto ishlab chiqaruvchisining 1910 yildan boshlab ishlab chiqarilgan uch g'ildirakli, 8 ot kuchiga ega Phänomobil 4/6 PS modeli edi. Bundan tashqari, komissarlik ixtiyorida tez yordam xizmati uchun Peugeot kompaniyasining 30 ot kuchiga ega avtomobili ham bo'lgan. Turkiston Kompartiyasi Markaziy qo'mitasi ixtiyorida Talbot 24 PH, Harbiy sanoat boshqarmasida 1910 yildan chiqarila boshlangan Adler, Harbiy kooperatsiyada 1909 yilda chiqarilgan Opel 6/12 PS, Suv xo'jaligi boshqarmasida 1902 yilda chiqqan Napier, shakar zavodida 1899 yilda chiqqan, 5 ot kuchiga ega Mercedes-Benz 8HP Rennwagen, Chimyon neft zavodida Ford Model T «Tin Lizzie» ulovlari bo'lgan.



Xullas, viloyatlar boshqaruv organlariga ham mashinalar ajratilgan edi. Jumladan, Samarqand va Farg'ona viloyat Ijroiya qo'mitasi uchun bir xil — 1911 yildan chiqarilgan, 32 ot kuchiga ega bo'lgan Delage Type X (Fransiya) ulovlari ajratilgan. Boshqa ko'plab davlat idora va tashkilotlari ixtiyorida ham avtomobillar bor edi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, *O'zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti*. 7-noyabr 2014-yilda asl nusxadan [arxivlangan](#). Qaraldi: 2014-yil 4-fevral. ([Wayback Machine](#) saytida 7-noyabr 2014-yil sanasida [arxivlangan](#))
2. "Kirish so'z". *O'zbekiston milliy ensiklopediyasi*. Toshkent. 2006-yil.
3. Internet manzillari: Norma.uz, Lex.uz.
4. Mavzuga oid ma'ruza matnlari.

